

O'ZBEKISTON GANCH O'YMAKORLIK SAN'TINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

S.Abdusalolov

Наманган Давлат Университети

“Тасвирий санъат ва амалий безак санъати”

мутахассислиги магистранти.

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbekiston ganch o'yakorligi san'atini o'ziga xos xususiyatlari va uning ahamiyati yurtimizda ganch o'yakorligini rivojlanishi haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** ganch o'yakorligi, san'at, bo'yoqlar, amaliy bezak san'ati*

***Аннотация:** В статье рассматриваются особенности искусства резьбы по гипсу в Узбекистане и его значение в развитии резьбы по гипсу в нашей стране.*

***Ключевые слова:** резьба по гипсу, искусство, краски, декоративно-прикладное искусство.*

***Abstract:** The article examines the features of the art of plaster carving in Uzbekistan and its significance in the development of plaster carving in our country.*

***Key words:** plaster carving, art, paints, decorations of practical art.*

O'zbekiston xalq amaliy san'atining ganchkorlik turi xam juda qadimgi tarixga ega. Ganchkorlik O'zbekiston me'morchilik-bezak san'atining qadimiy turlaridan biridir. XX asrga kelib Xiva, Buxoro, Toshkent, Samarqand, Andijon, Namangan, Qo'qon kabi shaharlari uning asosiy markazlari aylangan. Ganchkorlik san'ati xalq amaliy-bezak san'atining boshqa turlariga qaraganda, me'morchilik san'ati bilan uzviy bog'liq. Chunki ganchkorlik azaldan saroy, masjid va madrasa binolari hamda badavlat shaharliklarning uy-joylarini bezab turgan. Dastlab, qurilishlarda mahalliy maktablarga xos an'analar bilan bog'lanish kuchli bo'lgan. Qadimgi ganch o'yakorligi xajmiy bo'lib, ata poli tasvirlar asosida ishlangan. Ularda ko'pincha odamlar, hayvonlar, qushlar ta'sviri ishlatilgan. Eramizning birinchi asrlaridayoq kishilar ganchni ajoyib xususiyatga ega ekanligini bilib,

qol'ganlar, karvon saroy va boshqa joylarni bezay boshlaganlar. Vaqtlar o'tishi bilan naqqoshlik, yog'och va ganch o'ymakorligi yanada rivojlanadi. Murakkab ata pol tasvirni aks ettiradigan naqshlar paydo bo'ldi.

Ganch o'ymakorligi ishlari uying ichki namgarchilik tegmaydigan tashqi qismida ham qo'llanila boshlandi. XX asr boshlaridagi o'yma relyefi judda mayin bo'lgan uslub texnikasi paydo bo'ldi. Rangli ganchlar, bo'yoqlar, naqsh va tasvirlar qo'llanila boshlandi. O'zbekistonda o'ziga xos ganchkorlik maktablari vujudga kela boshladi. Bunga yaqqol misol Buxoro maktabi ganchkorligining texnik jarayoni birmuncha murakkab, ishlovlarning noyob uslublari va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Samarqand ustalarining ishlash uslublari Buxoro ganchkorligiga yaqin bo'lib, murakkab ganchning stalaktit uslubi orqali devorlar yuqori burchaklarini o'yma naqshli panno bezatilishi bilan ajraladi.

Toshkent maktabida keng tarqalgan o'simlik-islmiy kompozitsiyalar farg'onalik ustalarining ishlariga yaqin bo'lib, ko'pincha «o'simlik zanjiri» turkumidagi naqshlarni tashkil etadi. Qo'qon va Xiva ganchkor ustalarining ishlari murakkab orasta kiyofali xandasaviy naqshlari – girixlar bilan boy.

XX asrning yarmida ganchkorlik an'analari yo'qolish arafasida bo'lgan, lekin 1970-chi yillaridan boshlab Toshkent va O'zbekistonning boshqa shaharlarida davlat ahamiyatiga ega ob'ektlarni, ata pol, kafelarning qurilishida ganchkorlikdan unumli foydalanishga harakat qilindi. Shu bois 1990 yillarda Toshkentda yuqori darajali ganchkorlik maktabi rivoj olib («Usto» birlashmasi ustalari), ularning faolligida poytaxtning turli binolar inter'eri bezatildi («Oq saroy» qarorgohi, Oliy majlis binosi, «Turkiston» konsert zali, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, «Navro'z» nikoh o'yi, poytaxt teatrlari, ata politan stansiyalari va b.).

Hozirgi vaqtda ganchkorlik amaliy-bezak san'atining yetuk turi bo'lib, uning O'zbekistondagi me'morchilik inshootlari bezashda ahamiyati ata. Ganchkorlik ustalarining ijodiy namunalariga bo'lgan talab Xalqaro miqyosida ekanligini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. S. O. Mirzayev. Ganch o`ymakorligi fanidan ma`ruzalar matni, Andijon 2017
2. Булатов С. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. «Mehnat», T., 1991.
3. Zohidov P. Me'mor olami. Qomuslar bosh tahririyati, T., 1996